BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.FM.08.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TO‘RAYEV OZODJON G‘AYRAT O‘G‘LI

$YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$ (Y123), $Bi_2Sr_2Ca_{(n-1)}Cu_nO_\delta$ (Bi2212) KUPRATLARINING KRISTALL TUZILISHI VA O‘TA O‘TKAZUVCHANLIGI

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K 538.945.7

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам
Contents of the dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences

To‘rayev Ozodjon G‘ayrat o‘g‘li
$YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$ (Y123), $Bi_2Sr_2Ca_{(n-1)}Cu_nO_\delta$ (Bi2212) kupratlarining kristall tuzilishi va o‘ta o‘tkazuvchanligi.....3

Тураев Озоджон Гайрат угли
Кристаллическая структура и сверхпроводимость купратов $YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$ (Y123) и $Bi_2Sr_2Ca_{(n-1)}Cu_nO_\delta$ (Bi2212) 27

Turayev Ozodjon Gayrat ogli
Crystal structure and superconductivity of $YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$ (Y123) and $Bi_2Sr_2Ca_{(n-1)}Cu_nO_\delta$ (Bi2212) cuprates.....53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....59

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.FM.08.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TO‘RAYEV OZODJON G‘AYRAT O‘G‘LI

$YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$ (Y123), $Bi_2Sr_2Ca_{(n-1)}Cu_nO_\delta$ (Bi2212) KUPRATLARINING KRISTALL TUZILISHI VA O‘TA O‘TKAZUVCHANLIGI

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.1.PhD/FM1249 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Turayev Akmal Atayevich** fizika-matematika fanlari falsafa doktori (PhD), professor
Rasmiy opponentlar:	**Astanov Salix Husenovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Kurbanov Ulug'bek Tajibayevich fizika-matematika fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.FM.08.06 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 17-oktabr soat 10 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahar, M. Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel. (+99865) 221-30-46; faks (+99865) 221-29-06; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (D/1034 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahar, M. Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel. (+99865) 221-30-46).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "5" oktabr kuni tarqatildi.

(2026-yil "5" oktabr dagi 2 raqamli reystr bayonnomasi)

M.Z. Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Sh.Sh. Fayziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, fizika-matematika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Sh.A. Raximov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda elektr energiyasiga bo‘lgan talabning izchil ortib borishi, energiya resurslaridan oqilona foydalanish zarurati, uzatish va taqsimlash tarmoqlaridagi texnik yo‘qotishlarni kamaytirish hamda yuqori samaradorlikka ega energetik qurilmalarni yaratish zamonaviy materialshunoslik va kondensirlangan holat fizikasi oldiga muhim ilmiy-texnik vazifalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, elektr tokini qarshiliksiz o‘tkazish, kuchli magnit maydonlarda barqaror ishlash va yuqori tok zichligini ta’minlash xususiyatlariga ega o‘ta o‘tkazuvchi materiallar energetika, tibbiy diagnostika, yuqori aniqlikdagi o‘lchov texnikasi, kvant texnologiyalari, magnit levitatsiya tizimlari hamda termoyadroviy energetika kabi strategik sohalarda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchi materiallar asosida elektr energiyasini uzatish kabellari, o‘ta o‘tkazuvchi magnitlar, tok cheklagichlar, magnit energiya saqlash tizimlari va zamonaviy elektron qurilmalarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlar jadal rivojlanmoqda. O‘ta o‘tkazuvchi simlar bozorining 2025-yilda 1,32 mlrd AQSH dollariga baholanishi va 2030-yilga borib 2,19 mlrd AQSH dollariga yetishi prognoz qilinayotgani ushbu yo‘nalishning nafaqat fundamental fan, balki yuqori texnologiyali sanoat va innovatsion energetika uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi[1].

Jahonda yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchan (YuHO‘O‘) materiallar, xususan, ittriy-bariy-mis oksidi ($YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$) va vismut-stronsiy-kalsiy-mis oksidi ($Bi_2Sr_2Ca_{n-1}Cu_nO_{2n+4+\delta}$) kupratlari zamonaviy materialshunoslik va kondensirlangan holat fizikasining dolzarb tadqiqot obyektlari hisoblanadi. Y123 va Bi2212 kupratlarida o‘ta o‘tkazuvchanlik xossalarining kristall tuzilish, kislorod tanqisligi va legirlash darajasi bilan murakkab korrelyatsion bog‘liqlikka ega ekanligi ularning fizik mexanizmlarini chuqur fundamental tadqiq etishni taqozo etadi. Mazkur materiallarda kritik harorat T_c, kritik tok zichligi, elektr qarshilikning o‘zgarish qonuniyatlari va o‘ta o‘tkazuvchan fazaning barqarorligi kislorod miqdori, fazaviy tarkib, kristall panjara parametrlari hamda termik ishlov berish sharoitlariga bevosita bog‘liq. Shu sababli Y123 va Bi2212 kupratlarini olish texnologiyasini optimallashtirish, ularning strukturaviy holatini boshqarish hamda kritik harorat va o‘ta o‘tkazuvchanlik parametrlarini yaxshilashga qaratilgan tadqiqotlar yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchanlik hodisasining fizik mexanizmlarini aniqlash va nazariy jihatdan asoslash, amaliy qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish hamda istiqbolli funksional materiallar yaratish nuqtayi nazaridan muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda energiya resurslaridan oqilona foydalanish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish hamda elektrofizik xossalari boshqariladigan yangi funksional materiallar yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “... iqtisodiyot tarmoqlarining energiya samaradorligini oshirish, “yashil energiya” texnologiyalarini keng joriy etish va resurslardan oqilona foydalanish”[2] bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga

[1] https://www.marketsandmarkets.com/Market-Reports/superconducting-wire-market-226116096.html
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

oshirishda yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchi kuprat materiallar, xususan Y123 va Bi2212 kupratlarining kristall tuzilishi, fazaviy tarkibi, kislorod stexiometriyasi, kristall panjara parametrlari hamda o‘ta o‘tkazuvchanlik xossalarini chuqur tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Y123 va Bi2212 kupratlarining kristall tuzilish parametrlarini boshqarish hamda kritik harorat va o‘ta o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan tadqiqotlar energiya yo‘qotishlarini kamaytiruvchi istiqbolli funksional materiallar yaratish, elektrotexnika, kriogen elektronika, magnit tizimlar va yuqori samarali energetik qurilmalar uchun ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-sonli “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-sonli “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohadagi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ilm-fan, energiya samaradorligi, zamonaviy materialshunoslik va yuqori texnologik tadqiqotlarni rivojlantirishga doir vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining II – “Energetika, energotejamkorlik va muqobil energiya manbalari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Zamonaviy materialshunoslik, qattiq jism fizikasi va o‘ta o‘tkazuvchanlik fizikasi rivojining hozirgi bosqichida Y123 hamda Bi2212 tarkibli kupratli yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgichlar eng istiqbolli va fundamental ahamiyatga ega murakkab oksid materiallar qatorida qaralmoqda. Ushbu materiallarning sintez texnologiyasini takomillashtirish, kislorod stexiometriyasi va kationlar nisbatini boshqarish, kristall panjaradagi nuqsonlar, donalararo chegaralar, fazaviy geterogenlik hamda teksturalanish jarayonlarining o‘ta o‘tkazuvchanlik parametrlariga ta’sirini aniqlash bo‘yicha dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida keng ko‘lamli nazariy va eksperimental tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada T. Horide (Yaponiya), C.T. Lin (Germaniya), M. Nagao (Yaponiya), D.C. Larbalestier (AQSH), J.L. MacManus-Driscoll (Buyuk Britaniya), J. Jiang (AQSH), E.E. Hellstrom (AQSH), G.D. Gu (AQSH), H. Eisaki (Yaponiya) va boshqa yetakchi olimlar tomonidan olingan ilmiy natijalar kupratli yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgichlarning fazaviy shakllanish qonuniyatlarini, kristall-kimyoviy xususiyatlarini, tok tashish mexanizmlarini hamda amaliy qo‘llanish imkoniyatlarini chuqurroq tushunishga muhim hissa qo‘shmoqda.

YuHO‘O‘larning fundamental fizik xossalarini o‘rganish va ularning amaliy qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirish borasida mamlakatimiz olimlari tomonidan ham izchil ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, D.R. Djurayev, S.

Djumanov, B.Y. Yavidov, E.M. Ibragimova hamda D. Gulamova tomonidan yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchanlik hodisasining nazariy va eksperimental jihatlari, kupratlarda strukturaviy o‘zgarishlar, zaryad tashuvchilar dinamikasi, magnit hamda transport xossalarini tadqiq etishga doir salmoqli ilmiy natijalarga erishilgan.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning ilmiy ishlari Y123 va Bi2212 kupratli o‘ta o‘tkazgichlarning sintezi, kristall tuzilishi hamda elektrofizik xossalarini tadqiq etishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlarda olingan ilmiy natijalarning tahlili Y123 va Bi2212 namunalarini olish jarayonida sintez harorati, termik ishlov berish rejimi, kislorod miqdori, fazaviy tarkib va kristall panjara parametrlarining kritik harorat T_c ga ta’sirini aniqlash, shuningdek, ularning transport, magnit va o‘ta o‘tkazuvchanlik xossalari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlarni o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq mazkur kupratlarda texnologik parametrlar, strukturaviy omillar va o‘ta o‘tkazuvchanlik xossalari orasidagi o‘zaro bog‘liqliklar hozirga qadar yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi $YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$ va $Bi_2Sr_2CaCu_2O_{8+\delta}$ yuqori haroratli kuprat o‘ta o‘tkazgichlarini olish texnologiyasi parametrlarining kristall tuzilishi va o‘ta o‘tkazuvchanlik xossalariga (kritik haroratiga) ta’sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

tajribalar asosida Y123 va Bi2212 kupratli yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgichlarni sintez qilish jarayonida faza hosil bo‘lishi, kristall tuzilmaning shakllanishi va kislorod stexiometriyasining barqarorlashuviga ta’sir etuvchi harorat hamda vaqt rejimlarini aniqlash;

Y123 tarkibli kupratli yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgich namunalarini sintez qilishda ko‘p bosqichli sovitish texnologiyasining o‘ta o‘tkazuvchan faza shakllanishidagi rolini aniqlash, sovitish jarayonining har bir termik bosqichida kislorod atomlarining kristall panjara bo‘ylab diffuziyalanishi, Cu–O zanjirlarida tartiblanishi, kislorod vakansiyalarining qayta taqsimlanishi hamda tetragonal fazadan ortorombik fazaga o‘tish jarayonlariga ta’sirini tadqiq etish;

olingan namunalarning kristall tuzilishini rentgen difraksion tahlil asosida tadqiq etish, difraksion maksimumlarning intensivligi, siljishi va kengayishi orqali fazaviy tarkib, kristall panjara simmetriyasi (ortorombik yoki tetragonal strukturaviy holat) hamda strukturaviy nuqsonlar mavjudligini aniqlash;

sintez va termik ishlov berish parametrlarining kritik harorat T_c hamda o‘ta o‘tkazuvchanlik holatining shakllanishiga ta’sirini eksperimental aniqlash, shuningdek, T_c ning texnologik va strukturaviy omillarga bog‘liqligini ifodalovchi regressiya asosidagi empirik formulani ishlab chiqish;

Taguchi tajribalarni rejalashtirish usuli va regressiya tahlili asosida Y123 tarkibli kupratli yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgichlar sintezini belgilovchi asosiy

texnologik omillar – kalsinatsiya va sinterlash haroratlari, izotermik ushlab turish vaqtlari, presslash bosimi hamda sinterlashdan keyingi sovitish vaqtining T_c qiymatiga ko‘rsatadigan nisbiy ta’sir ulushini eksperimental aniqlash;

tajriba asosida olingan kupratli yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgich namunalarida Meyssner effektining namoyon bo‘lishini eksperimental kuzatish orqali materialda haqiqiy o‘ta o‘tkazuvchan faza shakllanganligini tasdiqlash.

Tadqiqotning obyekti. Tadqiqot obyekti sifatida $YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$ va $Bi_2Sr_2CaCu_2O_{8+\delta}$ kupratlari olingan.

Tadqiqotning predmeti. Qattiq fazali sintez usuli bilan olingan Y123 va Bi2212 kupratli yuqori haroratli o‘ta o‘tkazgichlarning kristall tuzilishi, panjara parametrlarining kislorod miqdoriga bog‘liq o‘zgarishi, CuO_2 tekisliklari va Cu–O zanjirlaridagi strukturaviy tartiblanish, Raman spektrlari va rentgen difraksion tahlil natijalari, shuningdek, elektr qarshilikning haroratga bog‘liqligi asosida o‘ta o‘tkazuvchan holatga o‘tish jarayoni, kritik harorat va elektrofizik xossalarning shakllanish qonuniyatlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kupratlarni sintez qilish uchun qattiq fazali reaksiya usulidan, namunalar xossalarini o‘rganish uchun rentgen difraksiyasi (Rietveld tahlili bilan), Raman spektroskopiyasi, elektr qarshilikni o‘lchashning to‘rt kontaktli usuli va magnit levitatsiya tajribasidan, tajriba natijalarini tahlil qilish uchun esa Taguchi tajribalarni rejalashtirish usuli hamda regressiya tahlilidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qattiq fazali sintez jarayonining asosiy texnologik parametrlari – kalsinatsiya va sinterlash rejimlari, kislorod muhiti hamda sovitish tezligini maqsadli o‘zgartirish natijasida adabiyotlarda qayd etilgan 91–93 K qiymatlardan yuqori, T_c = 95,5 K kritik haroratga va ΔT = 3 K o‘tish kengligiga ega $YBa_2Cu_3O_{6,91}$ tarkibli yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchan namuna olingan;

Y123 kupratini sintez qilishning texnologik parametrlari bilan kritik harorat T_c o‘rtasidagi miqdoriy bog‘lanish regressiya tahlili asosida aniqlanib, T_c qiymatini yuqori ishonchlilik bilan bashorat qilish imkonini beruvchi, determinatsiya koeffitsiyenti R^2 = 0,91 bo‘lgan empirik regressiya modeli ishlab chiqilgan;

Y123 kupratini sintez qilish jarayonida kalsinatsiya va sinterlash haroratlari, izotermik ushlab turish vaqtlari, presslash bosimi va sinterlashdan keyingi sovitish vaqti kabi asosiy texnologik omillarning kritik harorat T_c ga ta’siri Taguchi tajribalarni rejalashtirish usuli asosida kompleks faktorli tahlil qilinib, parametrlarning T_c ni shakllantirishdagi nisbiy ta’sir darajasi $T_{sin} > \tau_2 > \tau_1 > T_{cal} > \tau_3 > P$ ketma-ketligida ekanligi eksperimental aniqlangan;

kislorod stexiometriyasi optimal bo‘lgan Y123 namunalarida apikal Cu2–O4 bog‘ uzunligi (2,297 Å) va CuO_2 tekisliklaridagi Cu–O–Cu bog‘ burchaklari (≈164–165°) tajribaviy aniqlanib, ushbu lokal strukturaviy parametrlarning o‘ta o‘tkazuvchan holatga o‘tish kritik harorati T_c bilan o‘zaro bog‘liqligi umumlashtirilgan va ularning T_c shakllanishidagi roli ilmiy jihatdan asoslangan;

Bi2212 namunasi elektr qarshiligining haroratga bog‘liqligini tadqiq etish natijasida 80, 102 va 120 K haroratlarda kechuvchi ko‘p bosqichli o‘ta o‘tkazuvchan–normal holat o‘tishlari, shuningdek, 284 K atrofida kuzatiladigan qo‘shimcha fazaviy anomaliya aniqlanib, namunaning murakkab (ko‘p fazali)

tarkibga ega ekanligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ittriy asosli Y123 kupratlarini qattiq fazali reaksiya usulida sintez qilish uchun harorat-vaqt rejimlari, kislorod muhiti va sovitish sharoitlari optimallashtirilib, yuqori fazaviy tozalik va barqaror o‘ta o‘tkazuvchanlik xossalariga ega namunalar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

Bi2212 namunasida aniqlangan 80, 102 va 120 K haroratlardagi o‘tishlar hamda 284 K atrofidagi anomaliya asosida materialning fazaviy tarkibi va o‘ta o‘tkazuvchanlik sifatini elektr qarshilikning haroratga bog‘liqligi orqali nazorat qilish mezonlari taklif etilgan hamda yuqori kritik haroratli namunalar olish uchun sintez va termik ishlov berish rejimlari ishlab chiqilgan;

Y123 namunasi uchun kristall panjara shakllanishiga ta’sir qiluvchi sintez parametrlarining kritik harorat T_c ga ta’sir ulushini ifodalovchi hamda kritik haroratni yuqori aniqlikda bashorat qiluvchi regressiya asosidagi empirik formula ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kondensirlangan holat fizikasi va materialshunoslikning sinovdan o‘tgan zamonaviy tajribaviy usullaridan foydalanilgani, jumladan, Y123 va Bi2212 namunalarining fazaviy tarkibi va kristall tuzilishi rentgen difraksion tahlil asosida aniqlangani, apikal Cu–O bog‘ uzunligi hamda Cu–O–Cu bog‘ burchaklari strukturaviy tahlil qilingani, kritik harorat elektr qarshilikning haroratga bog‘liqligi orqali baholangani, shuningdek, kislorod miqdori, strukturaviy parametrlar va o‘ta o‘tkazuvchanlik xossalari orasidagi bog‘lanishlarning o‘zaro muvofiqligi hamda hisobiy va tajribaviy natijalarning bir-biriga mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Y123 kupratida yuqori kritik haroratga erishish sintez jarayonining texnologik parametrlari, kislorod miqdori hamda kristall tuzilish xususiyatlariga bevosita bog‘liq ekanligi tajribada asoslab berilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Y123 va Bi2212 yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchan namunalarini olishning optimal texnologik parametrlari ilmiy jihatdan asoslab berilgani bilan belgilanadi; bu natijalar mazkur materiallarni talab etilgan strukturaviy va elektrofizik xossalarga ega holda keng miqyosda ishlab chiqarish hamda ularni energetika, elektrotexnika va kriogen qurilmalarda qo‘llash uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Y123 va Bi2212 yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchan namunalarining kristall tuzilishi va o‘ta o‘tkazuvchanligi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Y123 namunalarining magnit xossalari va ularda kuzatiladigan Meyssner effekti bo‘yicha olingan natijalardan Rossiya Fanlar akademiyasi Sibir bo‘limi L.V. Kirenskiy nomidagi Fizika institutida 2021–2030-yillarda bajarilayotgan № FWES-2024-0001 “Yangi funksional magnit materiallar va gibrid tuzilmalarni izlash, sintez qilish hamda tadqiq etish” mavzusidagi ilmiy loyihada foydalanilgan (Rossiya Fanlar akademiyasi Sibir bo‘limi Fizika institutining 2026-yil 31-martdagi 03-125-son ma’lumotnomasi). Olingan ilmiy natijalardan foydalanish istiqbolli magnit xossalarga ega yangi materiallarni aniqlash, ularning strukturaviy va funksional parametrlarini maqsadli boshqarish hamda yuqori magnit

ko‘rsatkichlarga ega materiallarni sintez qilish imkonini bergan;

Y123 namunasi uchun kristall panjara shakllanishiga ta’sir qiluvchi sintez parametrlarining kritik harorat T_c ga ta’sir ulushini ifodalovchi hamda kritik haroratni yuqori aniqlikda bashorat qiluvchi regressiya asosidagi empirik formuladan Andijon mashinasozlik instituti (hozirgi Andijon davlat texnika instituti) va Xitoy Xalq Respublikasining Shimoliy Xitoy texnologiya universiteti hamkorligida 2022–2023-yillarda bajarilgan № MUK-2021-40 “Katta ma’lumotlarga asoslangan intellektual (AI) qayta tiklanuvchi energiya tarmog‘i tizimini tadqiq qilish va qo‘llash” mavzusidagi qo‘shma fundamental ilmiy tadqiqot loyihasining ilmiy natijalarini olishda foydalanilgan (Andijon davlat texnika institutining 2026-yil 29-yanvardagi 01-03-404-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy natijalardan foydalanish energiyani saqlash tizimlarini loyihalash usuli asosida butun tizimning ishonchliligi va ish samaradorligini optimal taqsimlash mexanizmini ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 4 ta xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 20 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 9 ta maqola, shu jumladan, 1 tasi Scopus bazasidagi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rt bob, xulosa, e’lon qilingan ishlar ro‘yxati, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 128 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida olib borilgan ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va uni amalga oshirish zarurati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Muammoning hozirgi kunga qadar o‘rganilganlik darajasi tahlil qilinib, tadqiqotning maqsadi va undan kelib chiqadigan vazifalar aniq belgilangan. Tadqiqot mavzusining O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilib, bajarilgan ish doirasida olingan ilmiy yangiliklar va ularning amaliy ahamiyati bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Yuqori haroratli kuprat o‘ta o‘tkazgichlarning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida metallar va legirlangan mis-oksidli (kupratli) birikmalarda o‘ta o‘tkazuvchanlikning nazariy asoslari hamda yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchanlikni tavsiflovchi asosiy mexanizmlar bo‘yicha adabiyotlar tahlili keltirilgan. An’anaviy past haroratli metall o‘ta o‘tkazgichlar uchun ishlab chiqilgan Bardin–Kuper–Shriffer (BKSh) nazariyasining qo‘llanish doirasi va uning chegaralari tahlil qilinib, kupratlarda kuzatiladigan yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchanlikni ushbu yondashuv bilan to‘liq tushuntirib bo‘lmasligi ko‘rsatib berilgan. Yuqori haroratli kuprat o‘ta o‘tkazgichlarning o‘ziga xos xususiyatlari – qatlamli kristall tuzilma, CuO_2 tekisliklarining hal qiluvchi roli, kuchli elektron korrelyatsiyalar, *d*-simmetriyali Kuper juftliklari

hamda g‘ayrioddiy metall fazalar nazariy modellar doirasida tahlil qilingan. Bobda keltirilgan nazariy tahlillardan kelib chiqib tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan.

Dissertatsiya ishining **“Namuna olish texnologiyalari va tadqiqot usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyekti bo‘lgan kupratlarning olinish texnologiyalari, namunalarni sifat jihatdan tekshirish va o‘ta o‘tkazuvchanlik xossalarini aniqlash bo‘yicha tadqiqot usullari tizimli o‘rganib chiqilgan.

Kupratlarni olishning qattiq fazali reaksiya usuli tegishli metall oksidlari yoki karbonatlarini maydalab aralashtirish hamda kationlarning o‘zaro diffuziyasini ta’minlash uchun aralashmani yuqori haroratda kalsinatsiya qilishdan iborat. Tadqiqotda namunalar 1-rasmda keltirilgan bosqichlar bo‘yicha olingan.



1-rasm. Qattiq fazali reaksiya usulining bosqichlari: a) boshlang‘ich xomashyo (oksid va karbonatlar); b) yuqori aniqlikda tortish va aralashtirish; c) dastlabki termik ishlov (kalsinatsiya); d) presslash jarayoni; e) presslangan tabletkalar; f) yakuniy termik ishlov (sinterlash).

$YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$ (Y123) kuprat keramik namunalari qattiq fazali reaksiya usuli orqali sintez qilindi. Boshlang‘ich reagentlar sifatida kamida 99,99 % tozalikka ega Y_2O_3, $BaCO_3$ va CuO kukunlari tanlanib, ular ittriy oksidi massasiga nisbatan Y_2O_3:$BaCO_3$:CuO = 1:3,5:2,1 massaviy nisbatda aralashtirildi. Komponentlarning bir jinsli taqsimlanishini ta’minlash maqsadida kukun aralashmasi agat hovonchada puxta maydalandi. Tayyorlangan aralashma dastlab havoda 880 °C haroratda 12 soat davomida kalsinatsiya qilindi.

Kalsinatsiyadan so‘ng namuna xona haroratigacha sovitilib, qayta maydalandi va 150 kgf/sm^2 (≈14,7 MPa) bosim ostida diametri 15 mm bo‘lgan silindrsimon tabletkalar shaklida presslandi. Presslangan namunalarning yakuniy sinterlanishi havoda 900 °C haroratda 12 soat davomida amalga oshirildi. Mazkur termik ishlov Y123 fazasining kristallanishi, donalararo bog‘lanishning yaxshilanishi va keramik namunalarning zichlashishini ta’minlashga xizmat qildi.

Sinterlashdan so‘ng $YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$ fazasida kislorod tartiblanishini yaxshilash va o‘ta o‘tkazuvchan ortorombik strukturani barqarorlashtirish maqsadida boshqariladigan ko‘p bosqichli (ikki bosqichli) sovitish rejimi qo‘llanildi. Dastlab namunalar 940 °C dan 600 °C gacha 7–8 °C/min tezlikda sovitildi. Ushbu bosqich yuqori harorat sohasida kislorodning panjara bo‘ylab qayta taqsimlanishi,

ikkilamchi fazalar hosil bo‘lishining cheklanishi hamda Y123 fazasining saqlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Keyingi bosqichda sovitish tezligi 1 °C/min gacha kamaytirilib, jarayon kislorod oqimi muhitida olib borildi. Sekin sovitish Cu–O zanjirlarida kislorod atomlarining tartibli joylashuvini, δ qiymatining kamayishini va o‘ta o‘tkazuvchanlik uchun zarur bo‘lgan ortorombik kristall simmetriyaning shakllanishini ta’minladi (2-rasm).



2-rasm. Y123 namunasini olishda optimal kislorod miqdorini ta’minlash uchun ko‘p bosqichli sovitishning harorat-vaqt rejimi.

Namunalardagi yakuniy kislorod miqdorini massa o‘zgarishi orqali aniqlash mumkin. Bunda massaning barcha yo‘qotilishi faqat kislorod miqdorining boshlang‘ich stexiometrik qiymati 7,00 dan kamayishi bilan bog‘liq deb faraz qilinadi. Namunadagi moddaning dastlabki miqdori (mollar soni) N_i kislorod tanqisligi yuzaga kelgandan keyingi mollar soni N_f ga teng bo‘ladi:

$$N_i = N_f \equiv N \tag{1}$$

$YBa_2Cu_3O_7$ ning molyar massasi M(Y123) quyidagicha aniqlanadi:

$$M(\text{Y123}) = M(\text{Y}) + 2M(\text{Ba}) + 3M(\text{Cu}) + 7M(\text{O}) \tag{2}$$

bu yerda M(Y), M(Ba), M(Cu) va M(O) – mos ravishda ittriy, bariy, mis va kislorodning molyar massalari. Kislorod tanqis namunalarda har bir formula birligiga x ta ($x \equiv \delta$) kislorod atomi kam to‘g‘ri kelgani uchun ularning molyar massasi M(YBCO) quyidagicha bo‘ladi:

$$M(\text{YBCO}) = M(\text{Y}) + 2M(\text{Ba}) + 3M(\text{Cu}) + (7 - x)M(\text{O}) \tag{3}$$

Namuna massasi undagi mollar sonining birikma molyar massasiga ko‘paytmasiga teng. Shu sababli namunaning dastlabki massasi m_i quyidagicha ifodalanadi:

$$m_i = N_i\,[M(\text{Y}) + 2M(\text{Ba}) + 3M(\text{Cu}) + 7M(\text{O})] \tag{4}$$

Yuqori haroratli tavlanishdan so‘ng kislorod tanqis namunaning yakuniy massasi m_f quyidagicha bo‘ladi:

$$m_f = N_i\,[M(\text{Y}) + 2M(\text{Ba}) + 3M(\text{Cu}) + (7 - x)M(\text{O})] \tag{5}$$

$N_i = N_f \equiv N$ ekanligini hisobga olib, massa o‘zgarishi $\Delta m = m_i - m_f$ uchun quyidagini olamiz:

$$\Delta m = xNM(\text{O}) \tag{6}$$

(6) tenglamani kislorod yo‘qotilishi x ga nisbatan yechib, quyidagini hosil qilamiz:

$$x = \frac{\Delta m}{NM(O)} \tag{7}$$

Kislorod tanqis namunalardagi kislorod miqdorining noaniqligi xatoliklarning tarqalish (dispersiya) formulasidan aniqlanadi:

$$\delta x = \sqrt{\left(\frac{\partial x}{\partial \Delta m}\right)^2 (\delta(\Delta m))^2 + \left(\frac{\partial x}{\partial \mathrm{N}}\right)^2 (\delta \mathrm{N})^2} \tag{8}$$

bu yerda δx, $\delta(\Delta m)$ va δN – mos ravishda kislorod yo‘qotilishi, massa o‘zgarishi va mollar sonining noaniqliklari. M(O) ning noaniqligi nolga teng deb qabul qilinadi.

$$N = \frac{m_i}{M(Y123)} \tag{9}$$

Mollar sonining noaniqligi quyidagicha hisoblanadi:

$$\delta N = \frac{\delta m_i}{M(Y123)} = \frac{\delta m_i}{m_i} N \tag{10}$$

(10) dagi oxirgi tenglik (9) dan kelib chiqadigan M(Y123) = m_i/N munosabatiga asoslanadi. (8) ifodadagi ildiz ostida turgan xususiy hosilalar quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{\partial x}{\partial \Delta m} = \frac{1}{NM(O)} \tag{11}$$

va

$$\frac{\partial x}{\partial N} = -\frac{\Delta m M(O)}{(NM(O))^2} \tag{12}$$

Massa o‘zgarishi noaniqligining kvadrati:

$$(\delta(\Delta m))^2 = (\delta m_i)^2 + (\delta m_f)^2 \tag{13}$$

(10)–(13) ifodalardan foydalanib, (8) tenglamani quyidagicha qayta yozish mumkin:

$$\delta x = \sqrt{\left(\frac{1}{NM(O)}\right)^2 \left[(\delta m_i)^2 + \left(\delta m_f\right)^2\right] + \left[\frac{\Delta m M(O)}{(NM(O))^2}\right]^2 \left(\frac{\delta m_i}{m_i} N\right)^2} =$$

$$\frac{1}{NM(O)} \sqrt{(\delta m_i)^2 + (\delta m_f)^2 + \left(\frac{\Delta m}{m_i}\right)^2 (\delta m_i)^2} \tag{14}$$

$\Delta m/m_i \sim 10^{-2}$ bo‘lgani uchun $(\Delta m/m_i)^2(\delta m_i)^2 \ll (\delta m_i)^2$, $(\delta m_f)^2$ bo‘ladi, ya’ni bu hadni hisobga olmaslik mumkin. Shunday qilib, kislorod miqdorining noaniqligi quyidagiga teng:

$$\delta x \approx \frac{1}{NM(O)} \sqrt{(\delta m_i)^2 + (\delta m_f)^2} \tag{15}$$

Namuna massasini o‘lchash noaniqligi quyidagicha qabul qilindi:
$\delta m_i = \delta m_f = \delta m = 0{,}2$ mg, garchi o‘lchashlarda foydalanilgan analitik tarozining sezgirligi 0,1 mg bo‘lsa-da. Bu qiymat o‘lchash jarayonida tarozi raqamli ko‘rsatkichida kuzatilgan tebranishlarni hisobga olish maqsadida tanlandi. Shu sababli:

$$\delta x = \frac{\sqrt{2}\delta m}{NM(O)} \tag{16}$$

(7) formula yordamida $YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$ namunadagi kislorod tanqisligi x (ya’ni δ), (16) formula yordamida esa uni aniqlash noaniqligi δx hisoblanadi.

Bi2212 namunalarini olish uchun ham qattiq fazali reaksiya usuli qo‘llanildi. Boshlang‘ich komponentlar Bi–Sr–Ca–Cu–O tizimiga muvofiq tanlandi. Shu

maqsadda yuqori tozalikdagi Bi_2O_3 (99,9 %), $SrCO_3$ (99,9 %), CaO (99,9 %) va CuO (99,9 %) kukunlari mos nisbatlarda olindi. $Bi_2Sr_2CaCu_2O_{8+\delta}$ formulasi asosida tayyorlangan umumiy massasi 10 g bo‘lgan kukun aralashmasidagi komponentlarning massalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Aralashmadagi boshlang‘ich komponentlarning massalari.

№	Komponent (n = 2)	Massasi, g
1	Bi_2O_3	5,761177
2	$SrCO_3$	2,908644
3	CaO	0,346672
4	CuO	0,983507

Boshlang‘ich reagentlar sifatida Bi_2O_3, $SrCO_3$, CaO va CuO kukunlari Bi:Sr:Ca:Cu = 2:2:1:2 stexiometrik nisbatda tarozida tortib olinib, komponentlar orasida kimyoviy va granulometrik bir jinslilikni ta’minlash maqsadida agat hovonchada puxta maydalandi hamda gomogen aralashma holatiga keltirildi. Tayyorlangan kukun aralashmasi dastlab 705 °C haroratda 12 soat davomida kalsinatsiya qilinib, karbonat komponentlarning termik parchalanishi hamda Bi–Sr–Ca–Cu–O tizimida dastlabki qattiq fazali reaksiyalarning boshlanishi ta’minlandi. Shundan so‘ng namuna pech ichida tabiiy sharoitda 12 soat davomida sovitildi, qayta maydalab gomogenlashtirildi va faza hosil bo‘lish jarayonini chuqurlashtirish maqsadida 780 °C haroratda 12 soat davomida takroriy termik ishlovdan o‘tkazildi. Keyingi bosqichda kukun yana maydalandi, gidravlik press yordamida diametri 10 mm va qalinligi 5 mm bo‘lgan silindrsimon tabletka shaklida presslandi hamda yakuniy sinterlash 880 °C haroratda 12 soat davomida amalga oshirildi. Sinterlashdan so‘ng namuna tabiiy sharoitda 15 soat davomida sovitilib, keyingi strukturaviy, Raman spektroskopik va elektr transport tahlillari uchun Bi2212 kuprat keramikasi olindi.

Tadqiqotda olingan namunalarning kristall tuzilishi, fazaviy tarkibi, panjara parametrlari va kristallografik orientatsiyasini aniqlash maqsadida rentgen difraksiyasi (XRD) usuli yordamida tahlil qilingan. Namunalardagi kristall panjara tebranishlari (fonon modalari), kimyoviy bog‘lar holati va strukturaviy tartib darajasini aniqlash maqsadida Raman spektroskopiyasi usuli qo‘llanilgan.

Y123 va Bi2212 namunalarining o‘ta o‘tkazuvchan holatga o‘tish kritik harorati elektr qarshilikni o‘lchashning to‘rt kontaktli usuli yordamida aniqlangan. Mazkur usulda tashqi ikkita kontakt orqali namunadan kichik qiymatli elektr toki o‘tkazilib, ichki ikkita kontakt orasidagi potensiallar farqi alohida qayd etilgan. Bunday o‘lchash sxemasi kontakt qarshiliklari, ulanish simlari qarshiligi hamda elektrod–namuna chegarasida yuzaga keladigan qo‘shimcha potensial tushuvlarning ta’sirini bartaraf etib, ayniqsa past qarshilikli va o‘ta o‘tkazuvchan holatga o‘tuvchi materiallarda yuqori aniqlikdagi natijalarni olish imkonini beradi. To‘rt kontaktli usulda elektr qarshilikni o‘lchash sxemasi 3-rasmda keltirilgan.

Harorat pasayishi davomida kuchlanishning tokka nisbati asosida $R(T) = U(T)/I$ bog‘lanishi olindi va qarshilikning keskin kamayishi kuprat namunalarda normal holatdan o‘ta o‘tkazuvchan holatga fazaviy o‘tish mezoni sifatida qabul qilindi. Kritik harorat $T_{c,boshlanish}$ (o‘tish boshlanishi), T_c (o‘tishning o‘rta nuqtasi) va

$T_{c,yakun}$ (qarshilikning nolga tenglashishi) parametrlari asosida aniqlanib, o‘tish kengligi ΔT orqali namunalarning fazaviy bir jinsliligi, donalararo elektr bog‘lanish darajasi, kristall strukturadagi nuqsonlar va kislorod stexiometriyasining transport xossalarga ta’siri tahlil qilingan.



3-rasm. To‘rt kontaktli usulda *R*(*T*) bog‘lanishini o‘lchash sxemasi.

Dissertatsiya ishining **“$YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$ va $Bi_2Sr_2CaCu_2O_{8+\delta}$ kupratlarining strukturaviy tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqot obyekti sifatida tanlangan kuprat namunalarning kristall tuzilishi, fazaviy tarkibi, o‘ta o‘tkazuvchi fazaning shakllanish xususiyatlari hamda lokal strukturaviy holati rentgen difraksiyasi (XRD) va Raman spektroskopiyasi usullari asosida kompleks tahlil qilingan.

$YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$ namunasi rentgen difraktogrammasi Rietveld strukturaviy aniqlashtirish usuli yordamida tahlil qilingan. Olingan difraktogrammada tajribaviy (Y_{obs}) va hisoblangan (Y_{calc}) profillarning o‘zaro mos kelishi tanlangan kristallografik modelning namunadagi asosiy fazani yetarli darajada ifodalashini ko‘rsatdi. Bragg reflekslarining joylashuvi namunaning ortorombik kristall sistemaga mansub *Pmmm* fazoviy guruhida kristallanganini bildiradi. Aniqlangan panjara parametrlari a = 3,82067 Å, b = 3,88769 Å va c = 11,68145 Å bo‘lib, elementar katakcha hajmi V = 173,511 Å^3 ni tashkil etdi. a va b parametrlarining farqlanishi namunada ortorombik deformatsiya mavjudligini va Cu–O zanjirlarida kislorod atomlarining tartiblangan joylashuvini ko‘rsatadi (4-rasm).



4-rasm. Y123 namunasi rentgen difraktogrammasining Rietveld usulidagi tahlili.

Strukturaviy modelda CuO_2 tekisliklaridagi Cu2–O2 va Cu2–O3 bog‘lari mos ravishda 1,9293 Å va 1,9609 Å, Cu–O zanjiridagi Cu1–O1 masofasi 1,9441 Å, apikal Cu2–O4 masofasi esa 2,2967 Å ekanligi aniqlangan. Atomlarning aniqlashtirilgan koordinatalari asosida hisoblangan Cu2–O2–Cu2 va Cu2–O3–Cu2 bog‘ burchaklari mos ravishda ≈163,9° va ≈165,0° ni tashkil etadi, bu CuO_2 tekisliklarining biroz egilganligini (buckling) ko‘rsatadi. Ushbu bog‘ uzunliklari Y123 tizimiga xos qatlamli kuprat strukturasi, CuO_2 o‘ta o‘tkazuvchi tekisliklari va Cu–O zaryad-rezervuar zanjirlari shakllanganini tasdiqlaydi (5-rasm, a).

Kristall tuzilish bilan birgalikda rentgen difraksiyasi natijalari asosida Furye elektron zichlik xaritasi ham hisoblandi. Unda Ba, Y, Cu va O atomlariga mos maksimumlarning aniqlanishi tanlangan atom koordinatalarining fizik jihatdan asoslanganligini ko‘rsatdi (5-rasm, b).



5-rasm. *a*) Y123 namunasining kristall tuzilishi; *b*) elektron zichlik taqsimoti (Furye elektron zichlik xaritasi).

Furye elektron zichlik xaritasini qurish rentgen nurlarining kristall panjara atomlari elektron bulutlarida sochilishiga asoslanadi. Difraksiya reflekslaridan olingan strukturaviy amplitudalar asosida kristall ichidagi elektron zichlik taqsimoti Furye yig‘indisi orqali tiklanadi:

$$\rho(x,y,z) = \frac{1}{V}\sum_{hkl} F(hkl)\exp[-2\pi i(hx+ky+lz)] \qquad (17)$$

Bu yerda:

$\rho(x,y,z)$ – elektron zichlik, V – elementar katakcha hajmi,

$F(hkl)$ – strukturaviy faktor, h, k, l – Miller indekslari,

x, y, z – atomlarning kasr (fraksion) koordinatalari.

Furye xaritasida kuzatilgan cho‘qqilarning balandligi atomlarning rentgen nurlarini sochish qobiliyatiga, ya’ni ulardagi elektronlar soniga bog‘liq. Y123 tarkibidagi og‘ir atomlar yengil atomlarga nisbatan yuqoriroq elektron zichlik maksimumlarini hosil qiladi. Shu sababli xaritadagi eng baland cho‘qqilar Ba va Y atomlariga, o‘rtacha intensivlikdagi cho‘qqilar Cu atomlariga, past intensivlikdagi cho‘qqilar esa kislorod atomlariga mos keladi (6-rasm).



6-rasm. Furye elektron zichligining *x/a* va *z/c* kasr koordinatalari bo‘yicha taqsimoti.

Ortorombiklik darajasi quyidagicha baholangan:

$$\eta = \frac{b-a}{b+a} \cdot 100\ \%\,, \quad \eta = \frac{3{,}88769-3{,}82067}{3{,}88769+3{,}82067} \cdot 100\ \% \approx 0{,}869\ \%$$

Bu qiymat namunada o‘ta o‘tkazuvchanlik uchun qulay bo‘lgan ortorombik tuzilish mavjudligini ko‘rsatadi.

2-jadval. Rietveld tahlili asosida aniqlangan Y123 namunasining strukturaviy parametrlari.

№	Atom	*x*	*y*	*z*	To‘ldirilish	*B*, Å^2	Zaryad	Ko‘plik
1	Y1(Y)	0,5	0,5	0,5	1	0,726	0	1
2	Ba1(Ba)	0,5	0,5	0,18393	1	0,979	0	2
3	Cu1(Cu)	0	0	0	1	0,908	0	1
4	Cu2(Cu)	0	0	0,35501	1	0,726	0	2
5	O1(O)	0	0,5	0	0,91	0,908	0	1
6	O2(O)	0,5	0	0,37819	1	0,816	0	2
7	O3(O)	0	0,5	0,37693	1	0,655	0	2
8	O4(O)	0	0	0,1584	1	1,005	0	2

2-jadvalda keltirilgan kislorod pozitsiyalarining to‘ldirilish darajalari (*g*) asosida Y123 namunasi uchun kislorod stexiometriyasi zanjir, tekislik va apikal kislorod pozitsiyalarining hissalarini yig‘ish orqali quyidagicha hisoblandi:

$$O_{umumiy} = 2\cdot(O4) + 2\cdot(O3) + 2\cdot(O2) + 1\cdot(O1) = 2 + 2 + 2 + 0{,}91 = 6{,}91$$

Natijada umumiy kislorod miqdori $O_{umumiy} = 6{,}91 \pm 0{,}01$ ga teng bo‘lib, bu $\delta \approx 0{,}09$ kislorod tanqisligiga mos keladi va optimal kislorodlangan o‘ta o‘tkazuvchan fazaga xosdir.

Raman spektral tahlilida o‘lchangan spektr diapazoni taxminan 173–1986 sm^{-1} oralig‘ini qamrab olgani sababli past chastotali 10–300 sm^{-1} soha faqat qisman baholandi; bu soha kristall panjara tebranishlari, og‘ir ionlarning kollektiv harakati va past energiyali fonon modalari bilan bog‘liq. Asosiy diagnostik ma’lumotlar 300–1800 sm^{-1} oralig‘idagi o‘rta chastotali “fingerprint/fonon” sohasida kuzatildi. Xususan, 301, 349, 379 va 439 sm^{-1} atrofidagi modalar Cu–O asosli panjara tebranishlari, CuO_2 tekisliklari va planar kislorod atomlarining lokal

tebranish holatini ifodalasa, 581 va 643 sm^{-1} atrofidagi kuchli Raman modalari kislorod subpanjarasi, Cu–O zanjirlari hamda apikal kislorod muhitiga sezgir fonon tebranishlari bilan bog‘liq deb talqin qilindi. 756 va 902 sm^{-1} atrofidagi kuchsiz polosalar, shuningdek, 1212 va 1584 sm^{-1} atrofidagi keng spektral komponentlar birinchi tartibli asosiy fononlardan ko‘ra nuqsonlar ta’sirida faollashgan, kombinatsion yoki yuqori tartibli Raman sochilish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin (7-rasm).



7-rasm. Y123 kupratining Raman spektri (*t* = 21 °C).

$Bi_2Sr_2CaCu_2O_{8+\delta}$ (Bi2212) kuprati yuqori darajada anizotrop qatlamli tuzilishga ega bo‘lib, uning difraktogrammasida xarakterli (00*l*) reflekslari kichik burchaklarda (*l* = 2, 4, 6, 8, …) kuzatiladi. Asosiy (002) maksimum $2\theta \approx 5{,}7°$ da joylashgan bo‘lib, bu $c \approx 30{,}8$ Å ga mos keladi. Bunday katta *c* parametri Bi2212 ning qatlamli tabiati va qatlamlar orasidagi katta masofani aks ettiradi (8-rasm).



8-rasm. Bi2212 kupratining kristall tuzilishi (tetragonal *I*4/*mmm* modeli).

Bi2212 ning kristall tuzilishi odatda tetragonal *I*4/*mmm* fazoviy guruhi (o‘rtachalangan tuzilma) yoki undan past simmetriyali ortorombik *Fmmm* fazoviy

guruhi doirasida tavsiflanadi. Tuzilmada har bir formula birligiga Ca qatlami bilan ajratilgan ikkita CuO_2 tekisligi to‘g‘ri keladi.

Bi2212 fazasi tor harorat va tarkib oralig‘ida barqaror bo‘lib, uni $c \approx 30{,}8$ Å ga mos keladigan xarakterli (00*l*) reflekslari orqali identifikatsiya qilish mumkin.

Raman spektrida 552,46 sm^{-1} da kuzatilgan cho‘qqi Bi–O bog‘ining valent (cho‘zilish) tebranishlariga mos keladi deb talqin qilinadi. 610,55 sm^{-1} dagi cho‘qqi Cu–O bog‘ining valent tebranishlarini, 403,83 sm^{-1} da qayd etilgan cho‘qqi esa Ca–O bog‘ tebranishlarini ifodalaydi. Bu namunada Bi2212 fazasiga xos kimyoviy bog‘lar mavjudligini ko‘rsatadi (9-rasm).



9-rasm. Bi2212 namunasining Raman spektri.

Y123 va Bi2212 kupratlarining kristall tuzilishlarini tizimli taqqoslash ularning o‘ta o‘tkazuvchanlik xossalaridagi farqlarni tushunish uchun muhim ahamiyatga ega (3-jadval).

3-jadval. Y123 va Bi2212 kupratlarining strukturaviy parametrlarini qiyoslash.

Parametr	$YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$	$Bi_2Sr_2CaCu_2O_{8+\delta}$
Fazoviy guruh	*Pmmm* (ortorombik)	*Fmmm* (psevdotetragonal)
a (Å)	3,82067	5,414
b (Å)	3,88769	5,418
c (Å)	11,68145	30,78
Elementar katakcha hajmi ($Å^3$)	173,511	902,1
CuO_2 tekisliklari soni	2 (ikki qatlamli)	2 (ikki qatlamli)
CuO_2 qo‘sh qatlamlari orasidagi masofa (Å)	11,68	15,39
Cu–O (tekislikda) (Å)	1,93–1,96	1,90–1,92
Cu–O (apikal) (Å)	2,30	2,40
$T_{c,max}$ (K)	91–95,5	90–95
ρ_c/ρ_{ab}	~50	10^4–10^5

Bu ikki kupratning kritik haroratlari bir-biriga yaqin bo‘lishiga qaramay, ulardagi o‘ta o‘tkazuvchanlik turli strukturaviy omillar bilan belgilanadi: Y123 da asosiy rolni Cu–O zanjirlaridagi kislorod tartiblanishi va ortorombik deformatsiya o‘ynasa, Bi2212 da esa katta *c* parametrli qatlamli (psevdotetragonal) tuzilma, Bi–O rezervuar qatlamlari va CuO_2 tekisliklarining kuchli ikki o‘lchamli xarakteri hal

qiluvchi ahamiyatga ega.

Dissertatsiya ishining **“$YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$ va $Bi_2Sr_2CaCu_2O_{8+\delta}$ kupratlarining o‘ta o‘tkazuvchanlik xossalariga kristall tuzilish va olish texnologiyasining bog‘liqligi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida namunalarning o‘ta o‘tkazuvchan holatga o‘tishi, elektr xossalari va ularga ta’sir qiluvchi omillar tajriba natijalari asosida tahlil qilinib, parametrlarning o‘zaro korrelyatsiyasi aniqlangan.

To‘rt kontaktli usulda o‘lchangan qarshilik taxminan 97 K da keskin kamaya boshlaydi ($T_{c,boshlanish}$). Qarshilik qiymati taxminan 94 K da nolga tenglashadi ($T_{c,yakun}$), o‘tishning o‘rta nuqtasi esa T_c = 95,5 K da kuzatiladi. Taxminan ΔT = 3 K ga teng bo‘lgan tor o‘tish oralig‘i namunaning yaxshi kompozitsion bir jinsliligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, o‘tishdan biroz yuqori haroratlarda normal holat qarshiligining pastligi donalararo bog‘lanishning kuchliligi va mikrostrukturaviy tartiblanganlikning yuqori darajasini tasdiqlaydi (10-rasm).



10-rasm. Y123 namunasi uchun elektr qarshilikning haroratga bog‘liqligi (T_c = 95,5 K, ΔT = 3 K).

Y123 namunasi uchun aniqlangan $T_c \approx$ 95,5 K qiymati adabiyotlarda keng qayd etilgan 91–93 K qiymatlardan 2–3 K yuqori. Shu sababli kritik haroratga aynan qaysi texnologik omillar hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishini aniqlash maqsadida qo‘shimcha namunalar seriyasini sintez qilish quyidagicha rejalashtirildi.

Sintez parametrlarining kritik harorat T_c ga ta’sirini o‘rganish maqsadida har bir parametr uchun uchtadan daraja (qiymat) tanlab olindi (4-jadval).

4-jadval. Y123 sintez parametrlarining tanlangan darajalari.

№	τ_1 (soat)	T_{cal} (°C)	τ_2 (soat)	T_{sin} (°C)	P (kgf/sm^2)	τ_3 (soat)
1	12	880	12	900	100	9,5
2	18	900	18	920	150	10,5
3	24	920	24	940	200	11,5

Bunda:

τ_1 – dastlabki qizdirish (kalsinatsiya) vaqti;

T_{cal} – dastlabki qizdirish (kalsinatsiya) harorati;

τ_2 – sinterlash vaqti;

T_{sin} – sinterlash harorati;

P – presslash bosimi;

τ_3 – sinterlashdan keyingi boshqariladigan sovitish vaqti.

Parametrlar ta'sirini to'liq o'rganish uchun MATLAB dasturi yordamida $3^6 = 729$ ta mumkin bo'lgan kombinatsiyadan iborat to'liq faktorli reja tuzildi. Buncha tajribani o'tkazish uzoq vaqt va katta mablag' talab qilgani sababli, tajribalar sonini kamaytirish uchun Taguchi L18 ortogonal matritsasi asosida 18 ta kombinatsiya tanlab olindi. Ushbu namunalar laboratoriyada sintez qilinib, ularning T_c qiymatlari o'lchandi.

Taguchi usuli bo'yicha tanlangan 18 ta tajriba sharoitida namunalar qattiq fazali reaksiya usulida bosqichma-bosqich sintez qilindi. Har bir tajribadagi sintez parametrlari va o'lchangan T_c qiymatlari 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval. Taguchi L18 ortogonal matritsasi bo'yicha sintez parametrlari va o'lchangan T_c, ΔT qiymatlari.

№	τ_1 (soat)	T_{cal} (°C)	τ_2 (soat)	T_{sin} (°C)	P (kgf/sm^2)	τ_3 (soat)	T_c (K)	ΔT (K)
1	12	880	12	900	100	9,5	95,3	9
2	18	900	18	920	150	9,5	93,1	5
3	24	920	24	940	200	10,5	88	9
4	12	880	18	920	200	9,5	90,5	8
5	18	900	24	940	100	10,5	92,3	7
6	24	920	12	900	150	9,5	92,2	5
7	12	900	12	940	150	9,5	92,4	4
8	18	920	18	900	200	11,5	92	6
9	24	880	24	920	100	9,5	93,2	2
10	12	920	24	920	150	9,5	91,1	5
11	18	880	12	940	200	9,5	92,3	4
12	24	900	18	900	100	11,5	91,2	5
13	12	900	24	900	200	10,5	93	4
14	18	920	12	920	100	11,5	92,1	4
15	24	880	18	940	150	11,5	87,8	5
